

G'AFUR G'ULOMNING "MENING O'G'RIGINA BOLAM" HIKOYASI
HUQUQSHUNOS NAZARIDA

Tursunmurodov Komron Turg'un o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti "Jinoiy odil sudlov" fakulteti talabasi

E-mail: tursunmurodov3009@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif akademik G'afur G'ulomning "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasidagi obrazlarni, voqealarni va qahramonlar sodir etgan qilmishlarni huquqiy jihatdan yoritib beradi. Muallif hikoyadagi har bir obrazga alohida to'xtalib o'tadi, shuningdek, voqealar rivojini to'g'ri talqin etishga va hikoyadagi jinoyatlarning kelib chiqish sabablarini keltirib o'tadi.

Kalit so'zlar: Roqiya bibi (Qora buvi), Karim qori, Odilxo'jaboy, Rahmonxo'ja, Matyoqubboy, o'g'ri, jinoyat, subyektiv tomon, poraxo'rlilik, ellikboshi.

GAFUR GULYAM'S STORY "MY CHILD OF A THIEF" FROM THE LAWYER'S
VIEWPOINT

Tursunmurodov Komron Turgun ugli,

student of the faculty of "Criminal Justice" at Tashkent State University of Law

E-mail: tursunmurodov3009@gmail.com

Annotation: In this article, the author explains the characters, events and actions of the characters in academician Gafur Gulyam's story "My child of a thief" from a legal point of view. The author focuses on each character in the story separately, and also gives the correct interpretation of the development of events and the reasons for the crimes in the story.

Keywords: Roqiya bibi (Black grandmother), Karim Qori, Adilkhojaboy, Rahmonkhoja, Matyoqubboy, thief, crime, subjective side, bribery, ellikbashi.

РАССКАЗ ГАФУРА ГУЛЯМА «МОЙ СЫНОЧЕК ВОРИШКА» С ТОЧКИ
ЗРЕНИЯ ЮРИСТА

Турсунмуродов Комрон Тургун угли,

студент факультета «Уголовное правосудие»

Ташкентского государственного юридического университета

E-mail: tursunmurodov3009@gmail.com

Аннотация: В данной статье автор разъясняет характеры, события и поступки героев рассказа академика Гафура Гуляма «Мой сыночек ворюшка» с юридической точки зрения. Автор акцентирует внимание на каждом персонаже рассказа в отдельности, а также дает правильную трактовку развития событий и причин совершенных в рассказе преступлений.

Ключевые слова: *Рокия биби (Чёрная бабушка), Карим қори, Адильходжабой, Раҳмонходжа, Матёқуббой, вор, преступление, субъективная сторона, взяточничество, эликбаши.*

“Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasi haqida so‘z borar ekan, biz avvalo akademik G‘afur G‘ulomning ushbu asarni yaratishiga to‘xtalib o‘tishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi. G‘afur G‘ulom ushbu voqeyiy hikoyani 1965-yilda yozib tugatgan. Hikoyadagi voqealar 1917-yillardagi G‘afur G‘ulomning yoshligini aks ettiradi. Shuni aytish joizki, hikoya real voqealarga asoslangan bo‘lib, unda o‘sha davr aholisining og‘ir kunlarni boshidan kechirayotgani, ko‘plab kasb egalarining kasodga uchragani va odamlarning ilojsizlikdan xarom yo‘l bilan ro‘zg‘or tebratishga majbur bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. G‘afur G‘ulom hikoyada o‘g‘rini insofga keltirgan Roqiya bibi obrazini keltirib o‘tadi va hikoya yakunida o‘g‘ri kimligini bilishini, ammo hech kimga aytgan emasligini ta’kidlab o‘tadi. Ushbu maqolada biz hikoyada keltirib o‘tilgan obrazlar va ularning hatti-harakatlarini huquqiy tomondan to‘g‘ri yoritib berishga harakat qilamiz.

G‘.G‘ulomning “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasida biz Roqiya bibi, Karim qori, Odilxo‘jaboy, Matyoqubboy, Rahmonxo‘ja va ismi noma‘lum bo‘lgan o‘g‘ri kabi asosiy obrazlarni uchratishimiz mumkin. Ushbu obrazlarning asosiy jihatlari, ularning jamiyatdagi o‘rnini alohida-alohida ko‘rsatib o‘tamiz. Demak, Roqiya bibini G‘.G‘ulom 80 yoshdan oshgan noskash va mehribon hamda o‘z qizining yetim qolgan to‘rt nafar farzandini tarbiyalaydigan buvi sifatida tasvirlaydi. Nabiralari Roqiya bibini erkalar Qora buvi deb atashadi. Roqiya bibi obrazi orqali biz haqiqiy odamgarchilik xislatlariga boy, sodda, shuningdek, mehribon odamni ko‘rishimiz mumkin. Qora buvi o‘g‘rini asta tomdan kelayotganini ko‘rganida, u shovqin chiqarmaydi, hech kimga bildirmaydi va o‘sha o‘g‘ridan muloyimlik bilan quyidagicha so‘raydi: “O‘g‘rigina bolam, hoy o‘g‘rigina bolam, hoynahoy biror tiriklikning ko‘yida tomga chiqqan ko‘rinasan, axir kasbing nozik, tumov-pumovingni yozib chiqsang bo‘lmaydimi?”. Huquqiy jihatdan ushbu hodisani asoslaydigan bo‘lsak, Roqiya bibi o‘g‘rilikka tushgan odamga o‘g‘ri sifatida emas, aksincha noilojlikdan pul topishga harakat qilayotgan odam sifatida qaraydi va o‘g‘rini fosh qilmaydi. Bu esa o‘z navbatida insonparvarlik prinsipining aks ettirilishidir. Har bir jinoyat sodir etilishining subyektiv tomoni, ya’ni maqsadi, sababi va qasdi mavjud bo‘ladi. Biz bu jinoyat (o‘g‘rilik, ya’ni o‘zganing mol-mulkini yashirin ravishda talon-taroj qilish)da esa sabab va maqsad sifatida noilojlikdan shunday qilmishni sodir etishni belgilasak bo‘ladi. Albatta, o‘g‘rilik yaxshi qilmish emas shuning uchun ham G‘.G‘ulom hikoyada Roqiya bibi obrazi orqali o‘g‘riga boshqa kasb bilan shug‘ullansa bo‘lishini yoki bo‘lmasam o‘ziga to‘q boylarning uylariga o‘g‘rilikka tushishi mumkinligini alohida ta’kidlab o‘tadi. O‘g‘ri obrazi orqali esa urush (yani, Birinchi jahon urushi) natijasida boshqa barcha kasblar: kavushdo‘zlar, etikdo‘zlar, pichoqchiqlar, bo‘zchilar, ko‘nchilar hattoki maktab domlari va mullavachchalar ham kasodga uchraganini va shu kasb egalarining farzandlari bir qoshiq obiyovg‘onga zor bo‘lib, sanqib yurganini tasvirlaydi.

Hikoyada biz uchta asosiy o‘ziga to‘q va badavlat boylarning obrazini ham uchratishimiz mumkin. Bular: Karim qori chitfurush, Odilxo‘jaboy pudratchi va Matyoqubboy degan ko‘nchilardir. G‘.G‘ulom ularning obraziga alohida to‘xtalib o‘tmaydi, lekin biz huquqiy jihatdan ularga nazar tashlaydigan bo‘lsak, jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni, ushbu shaxslarning

hatto urush davrida ham boy yashayotganligini, ya'ni ularning egri yo'llar bilan boyib, poraxo'rlik bilan hali ham badavlat yurishini bilib olishimiz mumkin. Roqiya bibi shu boylarning uyiga o'g'rilikka tushsang bo'lmaydimi, deb o'g'ridan so'raganida, u quyidagicha javob beradi: "Boylarning uyiga tushib bo'ladimi, ularning paxsasi sakkiz qavat, eshiklari temirdan, har bittasining qo'rasida eshakday-eshakday ikkita, uchtdan iti bor. Bu itlar hovli sahnidan bitta kapalak o'tsa bir hafta vovillaydi. Odilxo'jaboyning g'ulomgardishida-chi, miltiq ushlagan gorodovoy turadi. Jonimdan kechibmanmi, o'ldirmaganda ham Sibir qilib yuboradi." Bundan biz shu uchta boyning uylariga hatto o'g'rilar ham tusha olmasliklarini, agar tushishsa o'g'rilik yo o'lim yo bo'lmasa Sibirga surgun qilish bilan tugashini bilib olishimiz mumkin.

Endi esa hikoyadagi Rahmonxo'ja obrazini ko'rib chiqamiz. Rahmonxo'ja ellikboshi, ya'ni davlat amaldori bo'lib ishlaydi. Uning zimmasiga ko'plab vazifalar yuklatilgan. Afsuski, ushbu qahramonimiz poraxo'r va insofsiz odam sifatida tasvirlanadi. O'g'ri Orif sassiqlik degan odamning to'rtta tovuqini va bitta xo'rozini o'maradi. Uning bu qilmishi ochilishiga oz qolganida u ellikboshi Rahmonxo'jaga xo'rozni olib borib beradi, Rahmonxo'ja buning evaziga ishni bosdi-bosdi qilib yuboradi. Bundan tashqari, o'g'ri ellikboshiga 83 so'm pora berganida, Rahmonxo'ja o'g'rini rabochiyga ketishdan olib qoladi. Huquqiy jihatdan ushbu obrazga qaraydigan bo'lsak, u juda ko'plab jinoyatlar qilganligiga guvoh bo'lamiz. Birinchidan, ellikboshi Rahmonxo'ja davlat amaldori bo'la turib o'g'ri kimligini yashirgan. Ikkinchidan, o'g'riga yordam bergan. Uchinchidan, poraxo'rlik bilan shug'ullangan. G'afur G'ulom hikoyada ellikboshi Rahmonxo'ja obrazi orqali o'sha davr davlat amaldorlarining xalq manfaatlariga xizmat qilish o'rniga, ularning poraxo'rlikini, xalq ahvoriga befarqligini, pul uchun har qanday ishga tayyorligini ochiq ko'rsatib bergan.

"Mening o'g'rigina bolam" hikoyasidagi asosiy obraz – bu ismi noma'lum bo'lgan o'g'ri obrazidir. G'.G'ulom ushbu obrazga alohida ahamiyat beradi; o'g'rining ikkita farzandi, xotini va bitta kampir onasi borligini, ayolmand kosibning bolasi ekanligini, to'rtta chavati non topish uchun o'zini o'tga-cho'qqa, Alining tig'iga uradigan, noilojlikdan xarom yo'l bilan ro'zg'or tebratishga majbur bo'lgan, bilagida quvvati bor, aql-u hushli odam sifatida tasvirlaydi. Hikoya yakunida esa Roqiya bibining gaplari, uning mehribonligi va shu qiyin damlarda ham odamgarchilik xislatlari hali ham borligini ko'rib, o'g'riga insof kiradi. Roqiya bibi o'g'riga bitta yarim pudlik qozonni olib ketishini taklif qiladi. Lekin o'g'ri shu qozon o'sha yetimlarning o'ziga buyurishini tilaydi va bu og'ir damlar unut bo'lib ketishini aytib, ketadi. O'g'ri obraziga huquqiy baho beradigan bo'lsak, uning ilojsizlikdan yomon yo'lga kirganligini, ammo yaxshilik va insoniylik jihatlari hali ham uning qalbida borligini va o'g'rilik qilish yaxshi emasligini tushunib yetganligini aytishimiz mumkin.

Xulosa qilsak, G'afur G'ulom "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasida Roqiya bibi obrazi orqali o'sha davr aholisining insoniylik xislatlariga boy ekanligini, Karim qori, Odilxo'jaboy va Matyoqubboy obrazlari orqali xalqning pulini o'margan odamlar hali ham mavjudligini, Rahmonxo'ja obrazi orqali davlat amaldorlarining poraxo'rlikini va o'g'ri obrazi orqali esa oddiy xalqning ilojsizlikdan xarom yo'l bilan pul topishga majbur bo'lganligini tasvirlaganini ko'rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G'.G'ulom. Tanlangan asarlar. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.
2. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. I qism / S.Ahmedov, B.Qosimov, R.Qo'chqorov, Sh.Rizayev. – T.: “Sharq”, 2015. – 176 b.
3. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. II qism / S.Ahmedov, B.Qosimov, R.Qo'chqorov, Sh.Rizayev. – T.: “Sharq”, 2015. – 176 b.
4. G'afur G'ulom. Mukammal asarlar to'plami. 10-jild. Tarjimalar.
5. Nazarov B. G'afur G'ulom olami. – T.: Fan, 2004.
6. Akbarov A. G'afur G'ulom. О жизни и творчестве народного поэта Узбекистана. Т., «Yosh gvardiya», 1974.
7. Mamajonov S. G'afur G'ulom prozasi. – T.: Fan, 1966.